



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### MAHALLIY BOSHQARUVDA DEPUTAT SO'ROVI ORQALI NAZORAT MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

**Nazarov Elbek Alimovich**

*Urganch Davlat universiteti katta o'qituvchisi  
@elbek0484@umail.uz*

**Annotatsiya.** *Mazkur ilmiy maqolada mahalliy boshqaruv tizimida deputat so'rovi institutining nazorat mexanizmi sifatidagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda deputat so'rovining huquqiy mohiyati, uning mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan vakillik nazoratini amalga oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, deputat so'rovi orqali mansabdor shaxslarning hisobdorligi, ochiqlik va shaffoflik darajasiga ta'siri o'rganiladi. Maqolada amaldagi qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar.** *Mahalliy boshqaruv, deputat so'rovi, vakillik organlari, parlament nazorati, mahalliy kengash deputati, ijro etuvchi hokimiyat, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik, nazorat mexanizmlari, huquqiy tartibga solish.*

**Назаров Эльбек Алимович**

*Старший преподаватель  
Ургенчского государственного университета  
@elbek0484@umail.uz*

**Аннотация.** *В данной научной статье анализируется роль и эффективность института расследования депутатов как механизма контроля в системе местного самоуправления. В исследовании подчеркивается правовая природа расследования депутатов, его важность в осуществлении представительного контроля над деятельностью органов местной исполнительной власти. Также изучается влияние расследования депутатов на уровень подотчетности, открытости и прозрачности должностных лиц. В статье анализируются действующие законодательные нормы и практика правоприменения.*

**Ключевые слова.** *Местное самоуправление, парламентское расследование, представительные органы, парламентский надзор, заместитель главы местного совета, исполнительная власть, подотчетность, открытость и прозрачность, механизмы контроля, правовое регулирование.*

**Nazarov Elbek Alimovich**

*Senior Lecturer, Urgench State University  
@elbek0484@umail.uz*





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



**Annotation.** *This scientific article analyzes the role and effectiveness of the institute of deputy inquiry as a control mechanism in the local government system. The study highlights the legal nature of the deputy inquiry, its importance in exercising representative control over the activities of local executive authorities. It also studies the impact of the deputy inquiry on the level of accountability, openness and transparency of officials. The article analyzes the current legislative norms and law enforcement practice.*

**Keywords.** *Local government, parliamentary inquiry, representative bodies, parliamentary oversight, local council deputy, executive branch, accountability, openness and transparency, control mechanisms, legal regulation.*

Hozirgi davrda mahalliy boshqaruv tizimining samaradorligi, avvalo, vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida samarali nazorat va muvozanat mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda mahalliy kengash deputatlarining nazorat vakolatlari, xususan, deputat so'rovi instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Deputat so'rovi mahalliy boshqaruvda mansabdor shaxslar faoliyatining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va ochiqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy vositalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatida shaffoflikni oshirish, aholining vakillik organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda ijro hokimiyati ustidan samarali nazoratni ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, deputat so'rovi instituti orqali amalga oshiriladigan nazorat mexanizmlarining real samaradorligini baholash, uning huquqiy asoslari va amaliy qo'llanilish holatini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashi hamda deputati so'rovi tegishincha davlat organlari hamda tashkilotlarining tuman hamda shahar bo'linmalari mansabdor shaxslariga, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi hamda deputati so'rovi tegishincha davlat organlari hamda tashkilotlarining viloyat va Toshkent shahar bo'linmalari mansabdor shaxslariga yuboriladi.

Deputat so'rovi tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi qo'yilgan deputat murojaat qilishining alohida shaklidir.

Deputat so'rovi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga, qoida tariqasida, tegishli saylov okrugi saylovchilarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan yuboriladi hamda Deputat so'rovi mahalliy Kengash deputatining shaxsiy tashabbusi asosida amalga oshiriladi. Deputat so'rovi "E-kengash" mahalliy hokimiyat vakillik organlari portalidagi "deputat so'rovi" blankasida rasmiylashtiriladi va so'rov muallifi tomonidan imzolanadi.

Deputat so'rovida quyidagilar bo'lishi kerak:

- deputat so'rovi yuboriladigan mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda uning lavozimi;





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- deputat so'rovining sabablarini qisqacha asosi;
- asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi, javob taqdim etish shakli va muddati.

Deputat so'rovi qisqa va tushunarli shaklda bayon etilishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, deputat so'rovini mansabdor shaxslardan muayyan harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik bo'yicha ruxsat olish tarzida yuborish mumkin emas. Deputat so'rovi yuborilishidan avval u mahalliy Kengash kotibiyati tomonidan ro'yxatga olinadi. Deputat so'rovi yuborilgan mansabdor shaxs unga yozma ravishda, agar boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, so'rov olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yuboradi. Deputat so'roviga javobni u qaysi mansabdor shaxsga yuborilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxs yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs imzolashi kerak. Deputat so'roviga javob ushbu so'rovni yuborgan deputatning mahalliy Kengashiga yuboriladi. Deputat so'rovi kelib tushgan javob mahalliy Kengash kotibiyatida ro'yxatga olinadi hamda u kotibiyat tomonidan so'rovni imzolagan deputatga yetkaziladi. Mahalliy Kengash deputati o'zi a'zo bo'lgan mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyasini deputat so'rovini yuborganligi haqida so'rov yuborilgan kun xabardor qiladi. Deputat so'roviga javob mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyasining navbatdagi majlisida ko'rib chiqilishi mumkin. Agar deputat so'roviga javob mahalliy Kengash doimiy komissiyasining majlisida ko'rib chiqilgan bo'lsa, uni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan doimiy komissiya qaror qabul qiladi. Mahalliy Kengash doimiy komissiyaning qarori deputat so'roviga javob bergan mansabdor shaxsga yuboriladi.

Agar deputat so'roviga javob so'rovda ko'rsatilgan muddatni buzgan holda kelgan bo'lsa yoki agar javobda mavjud bo'lgan axborot deputat so'rovida ko'tarilgan hamma masalalarni hal qilmasa, so'rov yuborgan deputat a'zo bo'lgan mahalliy Kengashning doimiy komissiyasi mahalliy Kengash raisiga deputat so'rovi yuzasidan axborotni mahalliy Kengashning sessiyasi muhokamasiga olib chiqish haqida taklif kiritishi mumkin.

Mahalliy Kengash raisi mahalliy Kengash doimiy komissiyasi vakilining, agar ishtirok etgan bo'lsa, deputat so'roviga javob bergan mansabdor shaxsning axborotini eshitib, muhokama natijalari bo'yicha deputat so'rovi to'g'risidagi axborotni mahalliy Kengashning navbatdagi sessiyasi kun tartibi loyihasiga kiritish yoki kiritmaslik masalasini hal qiladi. Deputat so'rovi haqidagi axborot ko'rib chiqilganida mahalliy Kengash sessiyasiga deputat so'roviga javob bergan mansabdor shaxs taklif qilinadi. Ushbu mansabdor shaxs o'z vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berishi yoki nuqtai nazarini bayon qilishi shart.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi deputat so'rovining huquqiy asoslari, shakllari, javob berish tartibi va oshkorligi bo'yicha turli yondashuvlarni namoyish etadi. Ko'pgina davlatlarda deputat so'rovi qonun yoki ichki reglament bilan belgilangan rasmiy huquqdir. Masalan, Qo'shma Shtatlarda mahalliy kengash deputatlari ma'muriyat organlaridan yozma yoki og'zaki shaklda ma'lumot so'rashi mumkin bo'lib, javob muddati qonun bilan belgilangan (odatda, 30–60 kun). Buyuk Britaniyada esa deputatlar sessiyalar davomida "Written



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Questions” yoki “Oral Questions” shaklida so‘rov yuborish huquqiga ega. Shu bilan birga, Germaniyada kommunal deputatlar yozma so‘rovlar orqali ma’lumot olishadi va javoblar yozma yoki sessiya davomida taqdim qilinadi.

Fransiyada mahalliy deputatlar “questions écrites” yoki “questions orales” orqali shahar hokimiyatidan ma’lumot olishadi, javoblar majlisda yoki yozma shaklda taqdim qilinadi. Kanadada esa kommunal kengash deputatlari yozma so‘rov yuborib, javobni sessiya davomida yoki rasmiy hujjat sifatida oladilar.

Deputat so‘rovi javob berish majburiyatini yaratadi. Ko‘pchilik mamlakatlarda javob berish muddati qonun yoki reqlament bilan belgilangan. Masalan, Shvetsiyada yozma so‘rov yuborilganidan keyin javob 2–4 hafta ichida berilishi shart. Javob berishning majburiyligi deputatlarning nazorat funksiyasini samarali bajarishiga zamin yaratadi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlarida deputatlik so‘rovi mahalliy boshqaruv organlarining shaffofligini ta’minlash va deputatlarning nazorat funksiyasini amalga oshirish mexanizmi sifatida ishlatiladi. Masalan, Xitoyda mahalliy xalq kongresslari va mahalliy hukumat organlari deputatlik so‘rovlarini amalga oshiradi. Deputatlar yozma yoki sessiya davomida og‘zaki savollar shaklida ma’lumot so‘rashi mumkin. Shu bilan birga, so‘rovlar ko‘pincha siyosiy va strategik masalalarga yo‘naltiriladi. Javob berish tartibi asosan ichki rasmiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi.

Janubiy Koreyada esa, mahalliy kengashlar va ma’muriyat organlari deputat so‘rovlari orqali javob beradi. So‘rovlar yozma va og‘zaki shaklda amalga oshiriladi, javoblar kengash sessiyasida beriladi va odatda keng jamoatchilikka ochiq bo‘ladi. Javob berish muddati qat’iy belgilangan. Ushbu amaliyot G‘arbiy mamlakatlar tajribasiga yaqin bo‘lib, huquqiy kafolat, shaffoflik, javob berish majburiyligi va vakolat doirasidagi masalalarga yo‘naltirilganlik prinsiplariga asoslanadi.

Mahalliy boshqaruv tizimida deputat so‘rovi instituti nafaqat vakillik va nazorat mexanizmi, balki mahalliy hokimiyat organlarining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash vositasi sifatida ahamiyatlidir. Deputat so‘rovi mahalliy kengash deputatlariga ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini baholash va muammolarni aniqlash imkonini beradi, bu esa boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu institutning samaradorligini yanada oshirish hamda qonunchilikni takomillashtirish, deputat so‘rovlariga javob berish mexanizmini soddalashtirish va nazorat tizimini mustahkamlash bugungi kun uchun dolzarb masala hisoblanadi. Buning natijasida, deputat so‘rovi mahalliy boshqaruvda hisobdorlikni kuchaytiruvchi va vakillik prinsipini mustahkamlaydigan muhim huquqiy vosita sifatida faoliyat yuritadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023
2. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2.09.1993



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



3. “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashi tomonidan Kengash so‘rovini, mahalliy Kengash deputati tomonidan deputat so‘rovini yuborish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qarori.28.01.2025

4. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T-2024

